



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2018 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar



Joriy davrda 6 111,0 mlrd so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, ularning 65,8 %i jalb etilgan mablag`lar hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, korhona, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan 34,2 %i moliyalashtirildi.






Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalarning 20,7 %i korhona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 19,5 %, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 11,9 %, aholi mablag'lari 13,5 %,

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 5,4 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 17,3 %, Respublika byudjeti 3,1 % va Davlat maqsadli jamg'armalari 8,4 % va Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan esa 0,2 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.


Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

(jami hajmdagi ulushi, %da)





**Moliyashtirish manbalari bo`yicha
asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)**



	mlrd.so`m	o`shish surati, %da	jamiga nisbatan, %da
Barcha moliyashtirish manbalari hisobidan	6111,0	149,5	100,0
Republika byudjeti	188,6	60,5	3,1
Davlat maqsadli jamg`armalari	510,7	189,8	8,4
Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi	14,5	110,0	0,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi	329,3	69,1	5,4
O`zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	1059,9	235,6	17,3
Korhona mablag`lari	1267,3	120,4	20,7
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari	1188,9	188,2	19,5
To`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	728,8	1252,7	11,9
Aholi mablag`i	823,0	97,8	13,5



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar




	mlrd.so`m	o`sinh surati, %da	jamiga nisbatan, %da
Surxondaryo	6111,0	149,5	100,0
Oltinsoy	213,9	169,1	3,5
Angor	176,5	126,1	2,9
Boysun	535,9	175,1	8,8
Denov	285,4	120,8	4,7
Jarqurg'on	472,5	154,6	7,7
Qiziriq	181,8	104,8	3,0
Qumqurg'on	268,2	101,9	4,4
Muzrabod	209,3	191,9	3,4
Sariosiyo	659,0	156,0	10,8
Termiz	467,4	149,2	7,6
Uzun	111,6	104,4	1,8
Sherobod	1311,7	227,4	21,5
Sho'rchi	173,4	143,5	2,8
Termis sh.	1044,4	117,8	17,1



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar(davomi)

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o`shish suratlari




Surxondaryo viloyatida ham yuqori o`shish kuzatilib, ushbu hududdagi yirik investitsiya loyihalaridan Sherobod tumanida sement zavodining qurilishini keltirish mumkin.



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)

Viloyatdagi ulushi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hududlar kesimida Sherobod tumani hamon yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 21,5 %i o'zlashtirildi.

Shuningdek Sherobod tumanidan keyingi o'rinda Termiz shaxri 17,1 % ni tashkil etmoqda.


Sariosiyo va Boysun tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 10,8

va 8,8 %ni tashkil etdi.

Jarqurg'on hamda Termiz tumanlarida investitsiyalarning viloyatdagi ulushi 7,7 va 7,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, Uzun tumanida bu ko'rsatkich bo'yicha eng kami bo'ldi – 1,8 %.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo`yicha 3 897,8 mlrd. so`m o`zlashtirilgan bo`lsa, mashina, uskuna va inventarlarga

investitsiyalar 1 883,2 mlrd.so`m va boshqa xarajatlarga 330,0 mlrd. so`m o`zlashtirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi




Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo`naltirilgan. Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 3 989,8 mlrd.so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 65,3 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni

kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 2 077,7 mlrd.so`mni tashkil etdi va viloyatda jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 34,0 %ini tashkil etdi. Qolgan 0,7 %, yani 43,5 mlrd.so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibida tog`-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 1 493,0 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 24,4 %i o`zlashtirilgan.

Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko`p investitsiya o`zlashtirilgan 2 faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 246,7 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 4,0 %);

- to`qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish 356,8 mlrd.so`m (5,8 %);

Tashish va saqlashda 975,7 mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,0 %i o`zlashtirildi



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar




mlrd.so`m

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To`g`ridan - to`g`ri va boshqa investitsiya va kreditlar	shu jumladan:	
		investitsiya	kredit		investitsiya	kredit
Surxondaryo	1788,7	728,8	1059,9	728,8	726,2	-
Termiz sh.	291,0	107,8	183,2	107,8	107,4	-
tumanlar:						
Oltinsoy	8,1	8,1	-	8,1	8,1	-
Angor	45,2	10,4	34,8	10,4	10,3	-
Boysun	337,9	120,6	217,3	120,6	120,4	-
Denov	17,1	7,6	9,5	7,6	7,0	-
Jarqurg'on	173,4	151,5	21,9	151,5	151,4	-
Qiziriq	8,9	8,9	-	8,9	8,9	-
Qumqurg'on	68,8	3,0	65,8	3,0	2,7	-
Muzrabod	107,1	107,1	-	107,1	107,0	-
Sariosiyo	352,3	11,6	340,7	11,6	11,2	-
Termiz	185,5	3,4	182,1	3,4	3,2	-
Uzun	1,2	1,2	-	1,2	1,2	-
Sherobod	191,5	186,9	4,6	186,9	186,7	-
Sho'rchi	0,7	0,7	-	0,7	0,7	-



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Viloyatdagi ulushi, %da:



Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi tashish va saqlash faoliyati o'zlashtirilib, u 628,8 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 35,2 %ni tashkil etdi.


Hajm jihatidan keyingi o'rinni qayta ishlash sanoati egallagan.

Ushbu faoliyat turi bo'yicha 533,7 mlrd.so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 29,8 %i o'zlashtirildi.

Elektr, gaz bilan ta'minlash faoliyati bo'yicha 36,6 mlrd. so'm xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan.



Obyektlarni ishga tushirish



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 1071,0 ming kv.m, bo`lgan 7563 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan bo`lib, ulardan umumiy maydoni 822,0 ming kv.m. bo`lgan 5974 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 115,8 ming kv.m. 1062 ta turar joy qurib bitkazilib, ishga tushirildi.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko`radigan bo`lsak, eng ko`pi Termiz shahrida

ishga tushirilgan 136,2 ming kv.m. va u Viloyat bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 12,7 %ini tashkil etdi. Keyingi o`rinlarda Sariosiyo tumani, Denov tumanlari egallagan bo`lib, Viloyat bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 10,4 va 9,6 %ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Termiz tumanida ishga tushirilgan bo`lib, uning ulushi 3,9 %ni tshkil etdi.




Obyektlarni ishga tushirish (davomi)

Sog`liqni saqlash sohasiga oid obyektlar bo`yicha jami 895 o`rinli kasalxonalar, 438 qatnovga mo`ljallangan ambulator

poliklinikalar, ta`lim sohasida 5648 o`quvchi o`rniga mo`ljallangan umumta`lim maktablari ishga tushirildi.

Ishga tushirilgan turar joylar



Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni:

(76) 223-07-15